


XI. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI




Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025- yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 50 174 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 24 141 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 48,1 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (48,1%), savdo (17,5%), sanoat (10,2%) va qurilish (5,0%) sohalariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2025-yil 1-yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
Jami	50 174	100,0	24 141	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24 156	48,1	10 320	42,7
sanoat	5 105	10,2	2 046	8,5
qurilish	2 507	5,0	1 061	4,4
savdo	8 791	17,5	4 550	18,8
tashish va saqlash	696	1,4	340	1,4
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 115	4,2	1 070	4,4
axborot va aloqa	419	0,8	201	0,8
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	418	0,8	303	1,3
boshqa faoliyat turlari	5 967	12,0	4 250	17,7

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 32 368 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 16 606 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 51,3 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) savdo (27,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (19,6 %) sanoat (15,8 %) va qurilish (7,7 %) sohalariga to'g'ri keldi.




Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
(2025-yil 1-yanvar holatiga fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
Jami	32 368	100,0	16 606	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 350	19,6	2 785	16,8
sanoat	5 105	15,8	2 046	12,3
qurilish	2 507	7,7	1 061	6,4
savdo	8 791	27,2	4 550	27,4
tashish va saqlash	696	2,2	340	2,0
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 115	6,5	1 070	6,4
axborot va aloqa	419	1,3	201	1,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	418	1,3	303	1,8
boshqa faoliyat turlari	5 967	18,4	4 250	25,7

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning foizi) Jizzax shahri 8 597 ta (26,5 %), Sharof Rashidov 4 478 ta (13,8 %), G'allaorol 2 996 ta (9,3 %) va Zomin 2 877 ta (8,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-yanvar holatiga 16 606 tani tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 83,4 foizga (3 317 ta) ga kamaygan. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo 27,4 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 16,8 foiz, sanoat 12,3 foiz, qurilish 6,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 6,4 foiz, tashish va saqlash 2,0 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 1,8 foiz, axborot va aloqa 1,2 foiz, boshqa sohalar 25,7 foiz.

Hududlar kesimida

Jizzax viloyati	16 606	Jizzax shahri	4 497
Arnasoy tumani	741	Zarbdor tumani	812
Baxmal tumani	1 227	Mirzacho‘l tumani	591
G‘allaorol tumani	1 540	Zafarobod tumani	497
Sharof Rashidov tumani	2 269	Paxtakor tumani	779
Do‘stlik tumani	602	Forish tumani	1 196
Zomin tumani	1 450	Yangiobod tumani	405



Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)
(2025-yil 1-yanvar holatiga, birlik)

	2025- yil 1-yanvar holatiga ro‘yxatga olinganlar soni	shuningdek, 2024- yil yanvar-dekabr oylari davomida:	
		yangi tashkil etilganlar	tugatilganlar
Jizzax viloyati	32 368	4 469	2 222
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8597	1 009	544
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 367	313	73
Baxmal	2 289	325	115
G‘allaorol	2 996	499	243
Sharof Rashidov	4 478	481	203
Do‘stlik	1 296	164	120
Zomin	2 877	442	151
Zarbdor	1 627	285	167
Mirzacho‘l	1 257	125	88
Zafarobod	1 067	153	82
Paxtakor	1 593	189	84
Forish	2 161	356	270
Yangiobod	763	128	82

2025- yilning yanvar–dekabr oylarida jami 4 469 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan, kichik biznes sub‘yektlari 4 356 ta). Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahrida (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 1 009 tasi yoki 11,7 %), G‘allaorol (499 ta yoki 16,7 %), Sharof Rashidov (481 ta yoki 10,7 %), Zomin (442 ta yoki 15,4 %), Baxmal (325 ta yoki 14,2 %), Forish (356 ta yoki 16,5 %), Arnasoy (313 ta yoki 22,9 %), Zarbdor (285 ta yoki 17,5 %), Paxtakor (189 ta yoki 11,9 %), Do‘stlik (164 ta yoki 12,7 %), Yangiobod (128 ta yoki 16,8 %), Zafarobod (153 ta yoki 14,3 %) va Mirzacho‘l tumanlarida 125 ta (9,9 %) ni tashkil qildi.



Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)


	2025- yil 1-yanvar holatiga ro'yxatga olinganlar	shuningdek, 2024- yil yanvar-dekabr oylari davomida:	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
Jizzax viloyati	32 368	4 469	2 222
<i>shahar:</i>			
Jizzax	8 597	1 009	544
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1 367	313	73
Baxmal	2 289	325	115
G'allaorol	2 996	499	243
Sharof Rashidov	4 478	481	203
Do'stlik	1 296	164	120
Zomin	2 877	442	151
Zarbdor	1 627	285	167
Mirzacho'l	1 257	125	88
Zafarobod	1 067	153	82
Paxtakor	1 593	189	84
Forish	2 161	356	270
Yangiobod	763	128	82

2024- yilning yanvar–dekabr oylarida jami 4 469 ta yangi korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) ro'yxatga olingan, shundan kichik biznes sub'yektlari soni 4 356 tani tashkil qildi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo'yicha ro'yxatga olingan jami korxonalar va tashkilotlarning 1 009 tasi, yoki 22,6 %), G'allaorol (499 ta yoki 16,1 %), Sharof Rashidov (481 ta yoki 10,7 %) va Zomin (442 ta yoki 15,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yil 1-yanvar holatiga 28 973 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, shundan xususiy korxonalar 4 719 ta, oilaviy korxonalar 2 703 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 21 116 ta, aksionerlik jamiyatlari 20 tani tashkil etdi.



Ro'yxatga olingan tijorat korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha soni
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 26,1 foizi savdo, 27,8 foizi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 20,9 foizi sanoat va 7,0 foizi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohalariga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida 2 222 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.


2025- yilning 1-yanvar holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 201 tani tashkil etdi. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 76 ta, Turkiya Respublikasi 65 ta, Rossiya Federatsiyasi 43 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari 5 ta, Buyuk Britaniya 4 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 8 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 86 tasi qo'shma korxonalar, 115 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

2025- yilning 1-yanvar holatiga xorijiy mamlakatlar rezidentlarining kapitali ishtirokida ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 65 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43 taga ko'paygan. Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi 41 ta, Rossiya Federatsiyasi 13 ta, Turkiya Respublikasi 6 ta hamda boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 5 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2025- yil 1-yanvar holatiga, birlikda)

	2025- yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni	shundan	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Jizzax viloyati	201	86	115
<i>shahar:</i>			
Jizzax	80	32	48
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	11	1	10
Baxmal	5	3	2
G'allaorol	13	5	8
Sharof Rashidov	21	8	13
Do'stlik	5	1	4
Zomin	17	8	9
Zarbdor	3	1	2
Mirzacho'l	3	-	3
Zafarobod	8	3	5
Paxtakor	9	7	2
Forish	22	15	7
Yangiobod	4	2	2

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida 80 ta (umumiy sonidagi ulushi 39,7%), Forish tumanida 22 ta (10,9%), Sharof Rashidov tumanida 21 ta (10,4%), Zomin tumanida 17 ta (8,5%), G'allaorol tumanida 13 ta (6,5%) hamda Arnasoy tumanida 11 ta (5,5%) ni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi
(2025- yil 1-yanvar holatiga)

	Korxonalar soni, birlik	Jamiga nisbatan, % da
Jami	201	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22	10,9
Sanoat	102	50,7
Qurilish	10	5,0
Savdo	22	10,9
Tashish va saqlash	6	3,1
Yashash va ovqatlanish	3	1,5
Axborot va aloqa	21	10,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	0,5
Boshqa faoliyat turlari	14	7,1


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan 201 ta korxonaning 102 tasi (50,7 %) sanoat, 22 tasi (10,9 %) savdo, 22 tasi (10,9 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 10 tasi (5,0 %) qurilish, 21 tasi (10,4 %) axborot va aloqa, 6 tasi (3,0 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,5 %) yashash va ovqatlanish, 1 tasi (0,5 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 14 tasi (7,1 %) boshqa sohalarga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklari bilan)

2025- yil 1-yanvar holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 13 534 tani tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 81,2 foizga kamaygan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 782 tasi (27,9 %) Jizzax shahriga, 1 936 tasi (14,3 %) Sharof Rashidov, 1 271 tasi (9,4 %) G'allaorol va 1 152 tasi (8,5 %) Zomin tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13 534 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2 742 tasi (20,3 %) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 4 542 tasi (33,6 %) savdo, 2 013 tasi (14,9 %) sanoat, 1 042 tasi (7,7 %) qurilish, 1 066 tasi (7,9 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 337 tasi (2,5 %) tashish va saqlash, 231 tasi (1,7 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 186 tasi (1,4 %) axborot va aloqa sohasi, shuningdek 1 375 tasi (10,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa sohaslariga to'g'ri keldi.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimoti, % da (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)



2024- yilning yanvar–dekabr oylarida yangi 4 356 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilgan. Bu esa 2023- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 98,5 foizga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (973 ta), G'allaorol (493 ta), Sharof Rashidov (466 ta), Zomin (429 ta), Baxmal (315 ta), Forish (353 ta) va tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Arnasoy (310 ta), Zarbdor (279 ta), Paxtakor (183 ta), Do'stlik (161 ta), Mirzacho'l (123 ta), Yangiobod (124 ta), hamda (147 ta) Zafarobod tumanlarida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko'pi savdo (1 165 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (1 239 ta), sanoat (930 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (314 ta) sohalari, shuningdek boshqa faoliyat turlari (344 ta) hissalariga to'g'ri keldi. Eng kam esa, qurilish (156 ta), axborot va aloqa (105 ta), tashish va saqlash (58 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (45 ta) sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2025- yilning 1-yanvar holatiga 2 703 tani tashkil etdi, ulardan 1 120 tasi yoki 41,4 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining 359 tasi yoki 32,1 foizi sanoat, 361 tasi yoki 32,2 foizi savdo, 186 tasi yoki 16,6 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 119 tasi yoki 10,6 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12 tasi yoki 1,1 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 8 tasi yoki 0,7 foizi qurilish, 5 tasi yoki 0,4 foizi axborot va aloqa, 3 tasi yoki 0,3 tashish va saqlash hamda 67 tasi yoki 6,0 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keldi.



Xususiy korxonalar soni (2025- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xususiy korxonalar soni **2025- yil 1-yanvar** holatiga ko'ra 4 719 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 217 taga yoki 95,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 1 900 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 912 taga yoki 67,6 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 314 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 177 taga yoki 64,0 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2025- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni **2025- yil 1-yanvar** holatiga ko'ra 21 116 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 006 taga yoki 110,5 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 409 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 742 taga yoki 85,7 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 617 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 153 taga yoki 104,4 foizga ko'payganligini ko'rish mumkin.

